

## ZAMONAVIY MULTFILMLAR VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR: MEDIASAVODXONLIKNING ASOSIY YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI

Elmuradova Gulxayo Axmadjonovna  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti  
Mediamenejment va mediamarketing  
kafedrasi katta o'qituvchisi  
[g.elmuradova1991@mail.ru](mailto:g.elmuradova1991@mail.ru)*

Taqrizchi: Pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent Sh.N.Taylaqova

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda audiovizual mediada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun media-ta'larning sosiologik, huquqiy, madaniy, psixologik, haqida ijtimoiy – tarmoqlarda berib borilayotgan mediakontentlar tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogikaning zamonaviy yo'nalishi sifatida maktabgacha media ta'lim konsepsiyasining mohiyati, maqsadi, vazifalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha media ta'lim, mediasavodxonlik, animatsiya, media kutubxona, media ijodkorlik, media-ta'lim o'yini, media makon.

## СОВРЕМЕННЫЕ МУЛЬТИФИЛЬМЫ И ДЕТИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА: ОСНОВНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ

**Аннотация.** В статье анализируется социологическая, правовая, культурологическая, психологическая и искусствоведческая история медиаобразования дошкольников в аудиовизуальных СМИ Узбекистана. Как современное направление педагогики дошкольников раскрыты сущность, цель и задачи концепции дошкольного медиаобразования.

**Ключевые слова:** дошкольное медиаобразование, медиаграмотность, анимация, медиатека, медиаворчество, медиаобразовательная игра, медиапространство.

## MODERN CARTOONS AND PRESCHOOL CHILDREN: THE MAIN ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF MEDIA LITERACY

**Annotation.** The article analyzes the sociological, legal, cultural, psychological, and art history of media education for preschool children in

*audiovisual media in Uzbekistan. As a modern direction of pedagogy for preschool children, the essence, purpose, and tasks of the concept of preschool media education have been revealed.*

**Key words:** preschool media education, media literacy, animation, media library, media creativity, media-educational game, media space.

*Kirish.* BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasida (1989) har bir bolaning madaniy rivojlanish, ta’lim va axborot olish huquqi belgilangan. Bolalar va o‘smirlarning rivojlanishi tashqi manbalardan olgan axborotlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular orasida ommaviy axborot vositalari alohida o‘rin tutadi. Bolalik davri – shaxsning uzlusiz shakllanishi, uning shaxsiy rivojlanishi, shaxsda muayyan qadriyatlar kamol topadigan davrdir. Bu “ijtimoiylashuv” so‘zi bilan belgilanadigan polisillabik jarayondir va shuning uchun ijtimoiylashuv eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirda dunyoda axborot jamiyati sari faol harakat davom etmoqda va bu ommaviy axborot vositalari rivojidagi asosiy tendensiya bo‘lib qolmoqda. Bu, birinchi navbatda, raqamli televide niye va internet kabi yangi inqilobiy texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog‘liq. Bugun jurnalistikada bosma va elektron ommaviy axborot vositarining xilma-xilligini farqlash va kengaytirish, shuningdek, ommaviy axborot vositarining integratsiyasi kuzatilmoqda. Yosh avlodga dunyoning zamonaviy axborot resurslari tez va oson ta’sir ko‘rsatmoqda.

So‘nggi o‘n yil ichida dunyoda teleko‘rsatuylar umuman olganda mediakontentlar soni hajmi oshdi. Inson ongini ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyasiya qilishdan himoya qilish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, zamonaviy odam uchun ma’lumotni idrok etish ko‘nikmalariga, audiovizual tasvirlarning ma’nosini to‘g‘ri tushunish va axborot oqimlarini saralash qobiliyatiga ega bo‘lish ehtiyoji oshib bormoqda.

Shu munosabat aytish joizki, bolalar mediakontentlarini yaratishda mediata’limning o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bolalik - bu inson rivojlanishidagi juda qisqa, ammo juda muhim davr. Ko‘pgina olimlar maktabgacha yoshdagi davr insonning jadal jismoniy va ma’naviy rivojlanish davri ekanligini ta’kidlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu miyada olamni anglash, olam haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo‘lish davridir. Maktab yoshiga qadar bolalarda axloqiy talablarga ko‘ra o‘z xohish-istiklarini sekin asta bo‘ysundirish qobiliyati shakllana boshlaydi. Ammo bu yoshda bola hali o‘zining axloqiy e’tiqodiga ega emas, asosan atrofdagi odamlarning munosabatlari va axloqiy fazilatlarini kuzatadi.

Shu bilan bir qatorda, bola shaxsini shakllantirishga televide niye va

internetdagi mediakontentlarning ham katta ta'siri bor. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'ngilochar o'yin dasturlari, internet orqali ko'rila digan ayrim saviyasiz mediakontentlar mакtabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy ong darajasini pasaytirib, atrofni, dunyonidagi idrok etish jarayonida o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Internetdagi mediakontentlarning ba'zan real hayot bilan mos kelmasligi bolalarni chalg'itadi. Ular mediakontentlar ta'sirida qolib, virtual qahramonlarning hatti harakatlariga taqlid qila boshlaydi. Ijobiy qahramonlarga taqlid qilish asnosida bola shaxsida ijobiy fazilatlar shakllansa, salbiy qahramonlarga taqlid qilish esa salbiy sifatlani rivojlantiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mediakontentlar bolalarda nafaqat fiklash balki nutqiy rivojlanish, fikrni nutqda ifoda etish ko'nikmalarini ham shakllantirishi lozim. Mediapsixologlar televizor va internet bu jarayonda faol OAV ekanligini ta'kidlaydi. Shu ma'noda kompyuter o'yinlari, kattalar tomonidan boshqarilmaydigan ko'ngilochar dasturlar mакtabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim va tarbiyalash sohasidagi standartlar talablariga javob bermasa, mакtabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishining teskari yo'nalishga, ya'ni nutqiy rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda ushbu ko'p qirrali tushunchaning ko'plab talqinlari mavjud. Mediapedagogika sohasidagi mutaxassis D. Lemish, u "Mediasavodxonlikning media matnlarini tahlil qilish uchun quyidagi muhim narsalardagi pozitsiyalar: muallif mafkurasi; rejani belgilagan, media matnni yaratish jarayoni va uning auditoriya tomonidan idrok etilishi shart" – deb baholaydi. Ko'pgina o'zgarishlar va qo'shimchalarga qaramay, biz mакtabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan media savodxonligi ta'rifini olishga harakat qilamiz. Ushbu maqsadga erishish uchun biz A.V.Fedorovning ta'rifiga e'tibor qaratamiz, "Media savodxonligi - media ta'lim, media tadqiqotlar natijasi. Media savodxonligi rivojlangan shaxs media matnlarini idrok etish, tahlil qilish, baholash va yaratish, ularning ijtimoiy-madaniy va siyosiy kontekstini tushunish qobiliyatiga ega" [Fedorov, 2007, 22-bet]. Shuningdek, A.V.Fedorovning ta'rifiga e'tibor qaratgan holda, biz mediasavodxonlikning ta'rifini olamiz. Chunki televizor tomosha qilish va kompyuter o'yinlarini o'ynashda bola tashqi yoki ichki nutqdan foydalanmaydi, idrokning yuzakiligi ham, individual taassurotlar qiymatining pasayishi ham bolaning nutqi va tafakkuriga ta'sir qiladi. Tadqiqot jarayonida, biz zamonaviy multfilmlarni tomosha qilishning bolalar nutqiga ta'sirini tahlil qildik. Mакtabgacha yoshdagi bolalarning 90% dan ortig'i (6 yosh) multfilmlarni tomosha qilishni yaxshi ko'radi. Sevimli multfilmlar orasida bolalar:

"Leo" (Leo)

Maktab hayoti sirlarga to'la va bu faqat darsga taalluqli emas. Multfilmdagi bolalar juda omadli, chunki sinfxonaning burchagida deyarli 75 yildan beri yashab kelayotgan ajoyib maslahatchi bor. Uy vazifasi o'quvchilar va qariya kaltakesakning hayotini qanday o'zgartirgani haqida multifilmni;

#### **"Ajoyib beshlik" (Five on a Treasure Island)**

Hatto daydi itlar ham buyuk ishlarga qodir. Agar ular bo'lмагanida katta spektaklni buzmoqchi bo'lgan yomon odamlarni kim to'xtatar edi? Qahramonlar jamoasi buyuk Yekaterinaning tiarasini topib, qaytarishi kerak. Sizningcha, ular bu vazifani uddalay olishi haqida haqida multifilmni;

#### **"Elementar" (Elemental)**

Bir vaqtlar dunyoda to'rtta xalq yashagan, lekin kunlarning birida suv odami Ueyd go'zal Emberning boshiga tushdi. Shu vaqtdan boshlab hammasi ostin-ustun bo'lib ketgani haqida multifilmni;

#### **"Aka-uka super Mariolar kinoda" (The Super Mario Bros. Movie)**

Mario o'yini o'ynash ajoyib, lekin uning mustaqil sarguzashtlarini kuzatish ham undan qolishmaydigan haqida multifilmni;

#### **"O'rgimchak odam: Olamlar turi" (Spider-Man: Across the Spider-Verse)**

Mayls Morales allaqachon o'z koinotidan chiqqanga o'xshaydi. Endi boshqa joylarga sayohat qilish vaqtি keldi. Gven Steysi shaxsan siz uchun kelganida qanday qilib rad qilishingiz mumkinligi haqida multifilmni;

#### **"Laylakning sayohati-2" (A Stork's Journey)**

Sizningcha, chumchuq laylaklarning yetakchisiga aylanishi mumkinmi? Lekin Richard bunga chin dildan ishondi. Haqiqat ba'zida multifilmarga ham kirib boradi. Endi u o'zi sayohatga chiqishi va hatto qushlar to'dasi o'rtasidagi urushda qatnashishi kerak bo'lgan haqida multifilmni;

#### **"Robotlar mamlakatidan ochish" (Boonie Bears: Guardian Code)**

Bu ayiqlar hech qayerda kelisha olmaydi: sirkda ham, kosmosda ham. Aftidan robotlar mamlakati ham ular uchun mos kelmaganligi haqida multifilmni;

#### **"Charli va fantastik to'rtlik" (Heroes of the Golden Mask)**

Imkoniyat berilsa, ko'p odamlar o'zgaradi. Kichkina o'g'ri Charli buning yaqqol dalilidir. O'z egasiga aql bovar qilmaydigan kuchlar beradigan qadimiy niqob uni tanlaganida oldingi hayoti u uchun emasligini anglaydi. Yangisini boshlash vaqtি keldi, lekin bu katta mas'uliyat va kuch talab qiladigan haqida multifilmni;

#### **"Poygachi " (Rally Road Racers)**

Butun dunyo sizga qarshi bo'lsa, hayotda ildamlab ketish qiyin. Ji buni juda yaxshi tushunadi, ammo u mashhur poygachiga chaqiriq bilan chiqdi.

Endi u mashina izlashi, uni professional haydashni o'rganishi va g'alaba qozonishi kerak haqida multifilmni;

**"Ninza toshbaqalar: mutant qirg'in" (Teenage Mutant Ninja Turtles: Mutant Mayhem)**

Bu toshbaqalar allaqachon mukammallikka intilishdan charchagan. Ularning orzusi oddiy yashash, lekin buni amalga oshishi dargumon. Axir dunyo mutantlar bosqinidan qutqarish kerak bo'lgan qahramonlarga muhtoj ekankigi haqida multfilmlar tomosha qilishmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab zamonaviy multfilmlarda stilistik jihatdan qisqartirilgan lug'at mavjud, bunday so'zlar nafaqat bolalar, balki kattalar nutqida ishlatilmasligi kerak. Biroq, bolalar bunday so'zlarni tez o'zlashtiradi va nutqda ishlatishadi. Xavf shundaki, bolalar bunday so'zlarni kundalik hayotda takrorlashlari, buni norma deb bilishlari, doimiy nutqqa kiritishlari va shu bilan o'z lug'atlarini qisqartirish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mamlakatimizda maktabgacha media ta'limga yagona amaliy xarakterga ega bo'lganligi sababli nazariy jihatdan - bular maktabgacha ta'limga media-pedagoglari bir nechta nashrlari va maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatining ma'lum psixologik-pedagogik xususiyatlarini media-ta'limga orqali rivojlantirishga bag'ishlangan ishlari biz maktabgacha media ta'limga oid quyidagi masalalar bo'yicha nufuzli fikrlarini bilish uchun yetakchi media o'qituvchilari va jurnalistlar bilan birgalikda so'rovnama tashkil etdik:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mediasavodxonlikni o'rgatish dolzarb va zarur deb hisoblaysizmi?
2. Sizning fikringizcha, maktabgacha media ta'limga vazifalari nimalardan iborat?
3. Sizningcha, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan media-ta'limga darslarini qurishning eng yaxshi usuli qanday ommaviy axborot vositalari?
4. Sizningcha, animasion filmlarga (kompyuter, audio ertaklar, video, tele multfilmlar) tayanish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun media-tarbiyaning barcha muammolarini hal qila oladimi?
5. Maktabgacha ta'limga muassasalari va maktabgacha yoshdagi bolalar oilalarida pedagogik-psixologik jihatdan to'g'ri tanlangan animasion filmlarni sifatli tanlash natijasida shakllangan media-kutubxonani yaratish zarur deb hisoblaysizmi?
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mediasavodxonligini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uchun maktabgacha tarbiyachilarga qanday animasion filmlarni tavsiya qilasiz?
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish uchun ota-

onalar va tarbiyachilarga qanday animasion filmlarni tavsiya qilgan bo'lardingiz?

Mavjud ijtimoiy-madaniy vaziyatdan kelib chiqqan holda, media-ta'lim bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab tarbiyalashning ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, media ta'lim informatika emas va kompyuter bilan ishlashni o'rgatish maqsadini qo'ymaslik kerak. O'yin sharoitida bolalarga turli xil ma'lumot materiallari (vizual materiallar sifatida) berilishi mumkin, shu bilan birga ko'rilgan yoki tinglangan narsalarni muhokama qilish juda muhim. Bolalikda ekran materialini idrok etish ma'lum bir o'ziga xoslikka ega. Ular uchun ekrandagi yorqin qahramon, hatto salbiy qahramon bo'lsa ham, ko'pincha hayotiy qahramonga aylanadi. Shunday ekan, o'qituvchining o'rni katta. Suhbat qanday tashkil etilishi nafaqat bolalar bog'chasida, balki matabda ham ta'limga bog'liq bo'ladi, chunki maktabgacha yoshda bilim va ko'nikmalarning asosi shakllanadi va rivojlanish matabda davom etadi ".Natijada bolalarning bir-biri bilan muloqot qilishida muammolar yuzaga keladi. Buning sabablaridan biri, yehtimol, bolalar televizor oldida uzoq vaqt o'tirishi, internet kontentlari ta'sirida virtual olamga sho'ng'ishi natijasida nutq mexanizmlaridan foydalanishga hojat qolmaydi. Ular asosan shunchaki tinglovchiga aylanib qoladi. Tinglovchiga aylanib qolgan kichik tomoshabinda televizorda ko'rgan narsasi uning tasavvurini, ijodkorligini rivojlantirishga undamaydi. Shu sababli, ayrim bolalar o'z fikrlarini ifoda etishga qiynaladi. Bolalar animasion filmlardagi lug'atdan foydalanib, qahramonlarning xatti-harakatlarini ham o'zlashtiradilar, uni tanqidiy idrok eta olmaydilar. Bundan tashqari, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlар, qoida tariqasida, atrofdagi hayotga ko'chirib o'tkaziladi. Bugungi kunda ko'pchilik ota-onalar farzandlariga kam e'tibor berishadi, ularning o'rnini televizor yoki internet manbalari egallab olganday. Bola multfilmlarni, onlayn dasturlarni tomosha qilish bilan band bo'lsa, u atrofida sodir bo'layotgan hamma narsadan uzilib qolganga, nutqning oddiy tovushiga javob bermaydi. Bolalar tomosha qilayotgan mediakontentlar ota-onalar tomonidan nazorat qilinishi muhim. Nazoratsiz qolgan bolalar salbiy mediakontentlar ta'sirida tajovuzkor, o'jar bo'lib qolishi yoki qo'rquvga tushishi mumkin. Tadqiqotlarimiz va ota-onalar bilan suhbatlarimiz davomida ularning ko'pchiligi bolalarda, ayniqsa, kechki paytlarda qo'rquv hissining paydo bo'lishini ta'kidladilar. Bolalar multfilmlaridagi yirtqich hayvonlar, qo'rqinchli kadrlar bola psixikasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Multfilm tanlashda kitob tanlashdan ko'ra ehtiyot bo'lish kerak, chunki vizual tasvirlar ichki dunyosi va estetik didi endigina shakllanayotgan bolaga kuchliroq ta'sir qiladi. Ya'ni, bu yoshda bola uchun

filmlar ham, multfilmlar ham nafaqat o'yin-kulgi, balki tarbiya vositasidir. Multfilmlar syujetlarida mojaro, jang, otishma, quvish, ya'ni zo'ravonlik va tajovuzkorlik elementlari mavjudligi bolalarni ruhan charchatadi. Bola deyarli barcha ma'lumotlarni tasvirlar ko'rinishida qabul qiladi, shunga qarab u o'z tasavvurida dunyo modelini quradi.

Shu sababli bolalar mediakontentlari bolalarini shunchaki band qilishga emas, balki mediakontentlar orqali ma'lum bilimlarga ega bo'lish, tushunish, qo'llash kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bolalar mediakontentlarini tayyorlashda mediata'limning o'rni yaqqol sezilmoxda. Respublikamizda sohani rivojlantirishga tomon olib borilayotgan harakatlar bolalar journalistikasi oldiga ham muhim vazifalarni, talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan audiovizual materiallarga mediata'limning muhim nuqtasi deb qarash davr talabi hisoblanadi. Chunki, mакtabgacha yoshdagi bolalarda mediakontentlar misolida mediasavodxonlikni sekin-asta shakllantirish mumkin. Ammo tan olishimiz kerakki, bugun nafaqat O'zbekistondagi bolalar matbuotida balki dunyoning ko'pgina davlatlaridagi yosh avlodga bag'ishlangan mediakontentlarda mediata'lim instrumentlaridan to'la-to'kis foydalanish yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Bu esa, mediakontentlar ta'sirida tarbiya va hayot o'rtasidagi qaramaqarshiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababb bolalar journalistikasi mutaxassislari avvalo o'zları mediata'lim va uning ahamiyatini his etishlari kerak. Mediata'limning ahamiyatini chuqur anglash, mediakontentlarning bolalar tarbiyasi va shaxsiy rivojidagi ahamiyatini to'g'ri idrok etgan mutaxassisgina bolalar auditoriyasi uchun foydali kontent tayyorlay oladi. Ma'naviy klajak moddiyatdan ustunligini tushunmagan "media" chilar media muhitni biznes muhitiga aylantirib yuborishadi. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan mediamahsulotlar moddiyatga xizmat qiladi. Shularni hisobga olib, quyida bolalar dasturlarini tayyorlashda mediata'limning ahamiyatini izohlashga to'xtalamiz.

Tahlil va natijalar. Məktəbgacha yoshdagi bolalar journalistikasining bolalar dunyoqarashini kengaytirishga, hayotiy rivojlanish qobiliyatiga ega bo'lgan tarbiyani shakllantirish funksiyasi kontekstida ko'rib chiqiladi. Bunday OAV materiallari bolalar bilimlarini kengaytiradi, uning ruhiy olamini boyitadi. Albatta, "ma'lumot uzatish kanallari tizimining keng rivojlangani bois bolalar tarbiyasiga katta xissa qo'shadigan vosita bu - bolalar uchun mo'ljallangan journalistik materiallardir". Bolalar uchun ixtisoslashgan OAVlar bolalar tomonidan hayotiy faktlarni tanlash, ularni sharhlash va targ'ib qilish, voqelik to'g'risidagi tegishli ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tarqatish, turli ijtimoiy qatlamlarning axborot ehtiyojlarini qondirish uchun "mas'ul"

asosiy manba sifatida talab qilinadi.

Bolalar jurnalistikasi yangi kognitiv tajribaga ega bo'lish, qiziqish, kuzatish, tadqiqot va tajribalarga qiziqishni rivojlantirish usuli sifatida uni hal qilishda juda yaxshi yordam berdi.

Bolalar mediadasturlarining asosiy vazifasi, birinchidan, mакtabgacha yoshdagi bolalarning hayotni anglash tajribasini shakllantirish va ikkinchidan, bolalarda boshlang'ich ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, intizomni rivojlantirishga yordam beradi. Mediata'lim deyilganda, shaxsning OAV bilan muloqot o'rnatishi va auditoriyada ijodiy, kommunikativ, tanqidiy xususiyatlarini, axborotni tahlil etish va baho berish ko'nikmalarini mediamatnlar hamda ommaviy axborot vositalari materiallari asosida va yordamida rivojlantirish tushuniladi. YUNESKO tavsiyalarida qayd etilishicha, "Mediata'lim – har bir fuqaroning axborot olish huquqining bir qismidir"<sup>32</sup>.

1982 yilda YUNESKO Mediata'lim deklaratsiyasini qabul qilgandan keyin "mediata'lim" so'zi MDH davlatlariga ham kirib keldi. Inglizcha "media education" so'zi so'zma-so'z tarjima qilinishi emas, balki ma'no jihatdan tushunilishi maqsadga muvofiq. Rus tadqiqotchisi A.A.Jurinning uni quyidagi uch turga bo'lishi masalani oson tushunishga xizmat qiladi <sup>33</sup>.

Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o'smirlarga ta'sirini o'rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta'lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan yuzlashtiruvchi pedagogik fan.

Bolalar va o'smirlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi o'qituvchi va o'quvchilarining birgalikdagi amaliy faoliyati.

Ta'larning ommaviy axborot vositalarining madaniyat va dunyonи tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va media axborotlari bilan samarali ishlash ko'nikmasini shakllantiruvchi qismi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mediata'limning maqsadini quyidagicha izohlash mumkin: mediata'limning asosiy maqsadi – zamonaviy axborot sharoitida yosh avlodni turli axborotlarni qabul qilish, tushunish, anglash, texnika vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlarini, kommunikatsiyalarning noverbal shakllari asosida amalga oshiriladigan muloqot usullarini o'zlashtirish, bir so'z bilan aytganda, yosh avlodni hayotga tayyorlashdan iborat. Bundan tashqari, mediata'lim – bolalarga taqdim etilayotgan bilim va axborotlarning tushunarli va yodda qolarli bo'lishini ta'minlovchi o'rgatish usulidir.

<sup>32</sup> UNESCO, 2001. Media education. Paris: P.8

<sup>33</sup> Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы//Медиаобразование, 2005. №1. –С. 32

Xulosa va takliflar. Aksariyat ota-onalarning o‘zlari farzandida mediasavodxonlik asoslarini qanday shakllantirish bo‘yicha zarur bilimga ega emaslar. Shuning uchun, albatta, bolalarning media-ta’limini imkon qadar erta boshlash kerak, ular turli xil va janrlardagi media matnlar bilan tanishishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga media savodxonligini o‘rgatishni dolzarb va zarur deb bilaman, chunki bu yosh audiovizual ma’lumotni idrok etishga sezgir, uning xususiyatlaridan biri uzatilgan tasvirlarning ko‘rinishidir. Mediasavodxonlik bolalarda vizual ma’lumotni og‘zaki ma’lumotga aylantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, bu ularning nutqining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga animasion filmlar va boshqa ommaviy axborot vositalarining eng yaxshi namunalari asosida mediasavodxonlikni o‘rgatish bolalarning axloqiy va estetik tarbiyasi uchun foydali bo‘ladi, shuningdek, o‘quvchi shaxsining media kompetensiyasini rivojlanishishga uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning turli audiovizual media-matnlarga bo‘lgan qiziqishlarining yuqorilagini inobatga olgan holda, ularga mediasavodxonlikka o‘rgatish pedagogik faoliyatning o‘ta muhim jihatidek tuyuladi. Bolalarning ijodga katta qiziqishi tufayli ijodiy faoliyatdan foydalanish ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ommaviy axborot vositalaridagi matnlardagi qahramonlarning ichki xususiyatlarini ochib beradigan vositalarni aniqlash va o‘z ishlarida foydalanish qobiliyatini o‘rgatish muhimdir, bu orqali ularning munosabatlarini tahlil qilishga o‘tish mumkin. Mayjud vositalardan foydalangan holda hamma narsani ko‘rishga, tinglashga, takrorlashga harakat qiladi, ya’ni unga ommaviy axborot vositalarini o‘rgatish, ommaviy axborot vositalari bilan ishlashni o‘rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida asosiy rolni (va bu boshlang‘ich sosializatsiya davri) oilaning kundalik hayotining umumiyligi madaniy fonida o‘ynashiga ishonaman. O‘qituvchilar, kutubxonachilar va boshqalarning sa’y-harakatlari, ular nimani va qanday o‘qishlari, ota-onalarni kuzatishlari, ota-onalarning ommaviy axborot vositalariga qanday munosabatda bo‘lishlari oldin orqada qoladi. Ya’ni, bolalarga mediasavodxonlikni o‘rgatish bo‘yicha har qanday chora-tadbirlarni tarbiyalash va ota-onalarga maslahat berishdan boshlash kerak. Bu yoshda bolalar ommaviy axborot vositalarining iste’molchisi bo‘lganligi sababli, ular uni qanday qilib adekvat idrok qilishni o‘rganishlari maqsadga muvofiqliroqdir. Zamonaviy axborot muhitida mediata’lim - media bilan muloqot qilish madaniyatini, tanqidiy fikrlash va kommunikativ qobiliyatni, bolalarda atroimizdagi olam haqidagi bilimlarini shakllantirish hamda mediatexnika yordamida o‘z fikrini ifodalashning har xil turlarini o‘rgatish imkoniyatlarinining mavjudligini hisobga olib aytadigan bo‘lsak, mediata’lim -

ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari asosida bola shaxsini rivojlantirish jarayoni sifatida qabul qilinmoqda.

Bolalar auditoriyasi uchun mo'ljallangan mediakontentlarda, birinchi navbatda, mavzu rang-barangligiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki zamonaviy bolalarning qiziqishlari xilma-xilb har birining o'z talabi bor. Bolalar uchun qiziqarli kontent tayyorlashda bolalar telekanallari faol mualliflar doirasini kengaytirish, yangi-yangi ijodkorlaga imkoniyat berish va ularni kashf etishi lozim.

Bolalar jurnalistikasida ham ijodkorning badiiy mahorati, bolalar mavzulari va muammolarga munosabati ularning ijodiy mahoratiga borib taqaladi. Shakl va mazmun, kontentni yaratish formati, uslubi bolalar audiovizual materiallarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallifning mahorati mediakontentning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardandir. Bu borada namuna bo'larli ijodkorlar qatori bolalar jurnalistikasida hali professional darajaga ko'tarilmagani ham sir emas. Ya'ni bolalar telekanallari dasturlarida havaskorlik darajasida ijod qilayotgan mualliflarning telelavhalarini kuzatish holatlari ham yo'q emas. Ayrim dasturlarning uslubiy g'o'r, tahrirtalab, bolalarbop tilni his etmaslik holatlari bo'lgan materiallarining berilishi bolalar jurnalistikasi masalalarini doimiy va muntazam tadqiq etish ehtiyoji muhim muammoligini ko'rsatadi.

Zamonaviy axborot makonida mo'ljalni aniq olish, axborot oqimiga nisbatan bola shaxsida to'g'ri munosabatni shakllantirish, yosh avlodni zararli axborot xurujlaridan asrash masalasi bolalar matbuotining muhim vazifalaridan biri ekan, bolalarga mo'ljallangan milliy kontentlarni tayyorlash hamda xorijiy kontentlarni saralab keyin uzatishga alohida e'tibor qaratish, mavzuga doir chiqishlarni, axboriy savodxonlikni oshirishga doir samarali seminar treninglarni muntazam yo'lga qo'yishi davr talabidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Andersen, N., Duncan B. & Pungente, J. J. (2020). Media ta'lim - Bolalar va ommaviy axborot vositalari: rasm. Ta'lim. ishtirok etish. Geteborg: YUNESKOning bolalar va zo'ravonlik bo'yicha xalqaro hisob-kitob markazi Nordicomdagi ekranda, pp. 139-162.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim fan va madaniyat tashkiloti YUNESKOga yo'llangan tavsiyalar. In: Ommaviy axborot vositalari va raqamli asr uchun ta'lim. Vena: YUNESKO, 2022, 273-274-betlar.

3. Duncan, B. A Media savodxonlik: Muvaffaqiyatli media tadqiqotlari uchun ingrediyentlar, 2010. 265-288 betlar.
4. Jon Pungent, S. J. Barry Duncan va boshqalardan. Media savodxonligi bo'yicha qo'llanma, Ontario Ta'lim vazirligi/36-72betlar.
5. Laura Lederer, 2020. Boshqa davlatlar media ta'lim sohasida nima qilmoqdalar? <http://www.medialit.org/reading>.
6. Media Network, ommaviy axborot vositalaridan xabardorlik. [english/teachers/media\\_education/media\\_education\\_chronology.cfm](http://english/teachers/media_education/media_education_chronology.cfm)
7. Media tadqiqotlari markazi. Mediasavodxonlik tarixi . 255-300 betlar.
- 8.Qosimova.N. Toshpo'latova.N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: O'zDJTU, 2014. 108-b.
- 9.Toshpo'latova N. Bolalar masalalarini ommaviy axborot vositalarida yoritishda jurnalist mas'uliyati. Ilmiy maqolalar to'plami, –T.: 2014.
- 10.Jalilova B. O'zbek bolalar publisistikasi. –T.: Fan, 2006. –B. 5.
11. Atakulova.E. Zamonaviy matbuotda bolalar nashrlari:tadrij, tahlil va talqin. Mag. Diss. –T.: O'zDJTU, 2012. 89-b.
- 12.Yunusov.M Mustaqillik davrida O'zbekistonda bolalar jurnalistkiasining taraqqiyoti:yutuqlar, muammolar va yechimlar. (bosma nashrlar misolida). Diss. – T.: O'zMU, 2019. 128-b.
- 13.Mamatova.Ya, Sulaymonova.S. O'zbekiston mediata'lism taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma, – T.: "Extremum-Press" MCHJ. 2015. 103-s.
- 14.Djumanova.S. Mediata'lism ommaviy kommunikatsiya mahsuli sifatida. Diss. – T.: O'zDJTU, 2014. 117-b.